



# Journal of Natural Sciences

№1  
(2020)

<http://natscience.jspi.uz>



## **ТАХРИР ХАЙЪАТИ**

**Бош муҳаррир** – Худанов Улугбек Ойбутаевич, доц. Жиззах давлат педагогика институти Табиий фанлар факультети декани.

**Бош муҳаррир ёрдамчиси**-Мурадова Дилафруз Кадировна, Жиззах давлат педагогика институти Табиий фанлар факультети Кимё ва уни ўқитиш методикаси кафедраси доц.в.б.

## **ТАХРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ**

1. **Худанов У** – Табиий фанлар факултети декани, т.ф.н., доц.
2. **Кодиров Т**- к.ф.д, профессор
3. **Абдурахмонов Э** – к.ф.д., профессор
4. **Султонов М**-к.ф.д, доц
5. **Рахмонкулов У-б.ф.д.**, проф.
6. **Хакимов К** –г.ф.н., доц.
7. **Азимова Д**- б.ф.н.
8. **Мавлонов Х**- б.ф.д., доц
9. **Юнусова Зебо** – к.ф.н., доц.
10. **Гудалов М**- фалсафа фанлари доктори (география фанлари бўйича) (PhD)
11. **Мухаммедов О**- г.ф.н., профессор в.б.
12. **Хамраева Н**- фалсафа фанлари доктори (биология фанлари бўйича) (PhD)
13. **Рашидова К**- фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD)
14. **Мурадова Д**- фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD)

УДК: 551.4(575.1) 4545453

**JIZZAX VILOYATIDA EKOLOGIK TURIZMNI  
RIVOJLANTIRISHNING BA’ZI BIR IMKONIYATLARI**

**Usmanov Mashrab Rustamovich**

*Jizzax davlat pedagogika instituti*

*mashrabusmonov79@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Jizzax viloyatining ekologik turizmini rivojlantirish masalalariga bag’ishlangan bo’lib, viloyatda ekoturizm, ekosayohat, hamda ekoturizm maqsadlari to’g’risida ma’lumotlar keltirib o’tilgan.

**Kalit so’zlar:** ekoturizm, ekosayohat, ekomadaniyat, ziyoratgoh joylar, qo’riqxonalar.

**НЕКОТОРЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ  
ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ТУРИЗМА В ДЖИЗЗАКСКОЙ ОБЛАСТИ**

**Аннотация:** В данной статье на конкретных примерах изучено перспективы развития экологического туризма в Джиззакской области.

**Ключевые слова:** экотуризм, экопутешествие, экокультура, место паломничества, заповедники.

**DEVELOPMENT SOME OPPORTUNITIES OF  
ECOLOGICAL TOURISM IN DZHIZAK REGION**

**Annotation:** This article deals with the development of eco-tourism in Jizzakh and provides information on eco-tourism, eco-tourism and eco-tourism in the region.

**Key words:** eco-tourism, eco-travel, eco-culture, places of shrine, nature reserve.

**Kirish.** Dunyo miqiyosida turizmning eng yangi yo’nalishlaridan biri ekoturizmning asosiy maqsadi turistik marshurutlarni hududiy tashkil etishda atrof muhitni, tabiiy muvozanatni saqlab qolishga e’tiborni kuchaytirishdir. Shu nuqtai nazardan ekologik turizm umumiy ekologik muammolarni yechish bilan uyg’unlashib ketadi. Bunda turizm landshaftlar ekotizimida turistik salohiyatidan ularga zarar ko’rsatmagan holda foydalanish jiddiy ahamiyat kasb etadi. Turizmni rivojlantirish maqsadida uning ekologik tomonlarini geografik jihatdan ilmiy o’rganish kelajakda katta ahamiyat kasb etadi. Buning uchun turistik ob’ekt va

rekreatsiya, tabiiy zonalar va landshaftlar salohiyatidan samarali foydalanishda ularning ekologik xususiyatlariga e'tibor qaratish talab etiladi.

Hozirgi kunda dunyo bo'yicha jami sayohatga chiqqanlarning 12 foizi ekoturizmga ya'ni, "yashil" sayohatga chiqib, undan tushgan daromad 30 mlrd. AQSH dollarini, ya'ni uning xalqaro turizmndagi daromad hissasi 10 foizni tashkil etadi. Sayohatning bu turi asosan AQSH, Kanada, Avstraliya, Nepal, Ekvador, Braziliya, Fillipin, Keniya, JAR kabi davlatlarida tez rivojlanmoqda [4].

Go'zal geografik va tabiiy sharoitlar Respublikamiz hududida ekologik turizmni rivojlantirish uchun g'oyat qulaydir. Bu borada mamlakatning tog'li hududlarida joylashgan, zamonaviy jihozlangan sayyohlik majmualarida qishgi va noyob sayyohlik dasturlari tashkil etilgan. Sayyohlikning yangi yo'nalishi - yirik qo'riqxonalar va bog'lar hududida tashkil etilgan tabiatshunoslik turizmi rivojlanmoqda [2].

**Ishning maqsadi va vazifalari.** Ekosayyohlik nafaqat tabiat qo'ynida sayr qilish, ayni paytda mahalliy aholi, uning turmush tarzi bilan tanishish imkoniyati hamdir. Binobarin, bu yo'nalishdagi loyihalar orasida tabiatni muhofaza qilish, mahalliy aholi turmushi, urf-odat va an'analarini, xalq og'zaki ijodi namunalarini o'rganish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish asosiy maqsad sifatida amalga oshirilmoqda. Aholi faol ishtirok etayotgan bu ishlarning muhim jihati - joylarda aholini doimiy daromad manbai bilan ta'minlashga xizmat qilayotganidir. Ekologik turizmni rivojlantirishning dolzarbligini hisobga olib, ekologik turizmning mohiyatiga baho berish va ekologik turizm resurslariga baho berish, ekologik turizm resurslariga turistik marshrutlar tuzishning uslubiy tashkiliy asoslarini ishlab chiqish, ekologik turizmni rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslariga to'xtalish, Jizzax viloyatining ekoturistik tabiiy mintaqalariga ta'rif berish hisoblanadi. Ekoturizm maqsadlari quyidagilardan iborat.

- inson foaliyati natijasida nisbatan ziyon yetkazilmagan yovvoyi tabiatga sayohat (piyoda, otlarda, tuyalarda, avtomobilda sayohat);
- noyob hayvonot va o'simlik dunyosi bilan tanishish;
- ekosafari (ov va baliq ovlash);
- ilmiy ekskursiyalar (botanik, zoologik, geologik, etologo-etnografik, arxeologik, geomorfologik, ekologik-madaniy va x.o) [5];

Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi o'ziga xos ekoturistik rayon hisoblanadi. Bu o'z navbatida viloyat ekoturizm istiqbolida muhim ob'ekt sifatida tadqiq etilishi maqsadga muvofiq sanaladi.

Ekologik turizm - tabiiy turizmning insonlarni birlashtiruvchi ilmiy - tadqiqot maqsadlaridagi turlaridan biridir. Unda turistlarning qiziqishlari atrof - muhit tabiati

va ularni saqlash bilan olib borilmog'i kerak. Turizmning ushbu turida qo'riqlanayotgan tabiat hududlari alohida o'rin tutadi. Shunday qilib, ekologik turizm - qat'iy maxsus turdagi, ilmiy - tadqiqot maqsadlaridagi xizmat turidir. Jizzax viloyatida ekoturistik ob'ektlarni o'rganish va baholash asosida mintaqa ekoturizmini rivojlantirish hamda hududiy tashkil etish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iboratdir. Tadqiqodning maqsadidan kelib chiqqan holda uning quyidagi vazifalari belgilandi.

- ekoturizmni milliy va mintaqaviy iqtisodiyotdagi o'rni hamda uning o'ziga xos jihatlarni tadbiq etish;
- Jizzax viloyatida ekoturizmni tashkil etish va uni rivojlantirish uchun mavjud imkoniyatlarni taxlil qilish va baholash;
- mintaqa ekoturizmining rivojlantirish muammolarini va kelajakdagi istiqbollarni ilmiy asoslarini ishlab chiqish, ustuvor yo'nalishlarini belgilash.

Hozirgi ekologik muammolar mavjud bo'lgan paytda aholining ushbu turizm turidan foydalanishlari va uni tashkil etish ham oson ish emas. Ekologik turizm avvalo ekoresurslar mavjud hududlarda tashkil etiladi. Buning uchun tabiiy- iqlim resurslari - okean, dengiz, daryo va ko'llar, sun'iy suv havzalari, cho'l va qumliklar, tog'lar va ulardagi sharsharayu g'orlar, qir - adirlar, qo'riqxonalar va bog'lar bo'lishi lozim. Eng asosiysi, Olloh ato etgan ushbu tabiat resurslarini avaylab - asrash, ulardan turizm va insonning boshqa ehtiyojlari uchun oqilona foydalanish kerak [3].

**Tadqiqod natijalari va ularning muhokamasi.** Turizm - iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlaridan biri sifatida iqtisodiy va ijtimoiy muammolar yechimida muhim o'rin tutadi. Xususan, qo'shimcha ish o'rinlari yaratish, aholi bandligini ta'minlash, xalq farovonligini yuksaltirishda mazkur sohaning o'rni beqiyos.

Jizzax vohasida turizm va ekoturizmni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlarni o'rganish va amaliy yordam berish, mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanishni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq xisoblanadi. Jizzax vohasining eng so'lim joylaridan biri-Zomin tumanidagi ziyoratgoh manzillari ham xalqimizning tarixiy, ma'naviy qadriyatlarini, ulug' ulomalari, aziz avliyolari va ularning abadiy qo'nim topgan muqaddas qadamjolarini hozirgacha asrab-avaylab kelayotganligining namunasidir.

O'rganishlar davomida guvohi bo'lganimizdek, tumandagi ziyoratgohlar va muqaddas qadamjolarining ko'pchiligi o'tmishda o'zbek xalqi tarixida namuna sifatida iz qoldirgan amirlar, xonlar, islom olamidagi mashhur avliyolar, islom ta'limotini yaratgan olimu-fuzalolarning nomlari bilan bog'liq. Xususan, Zomin tumanidagi “Ko'kto'nliota” xonaqohi, “Xo'jai Sarobota” ziyoratgohi, “Xo'ja

Shohimardon Sherdor” ziyoratgohi, “Parpiota” ziyoratgohi, “Xoja Qahhor Vali” masjidi, “Archamozor ota” qabristoni kabi bunday ziyoratgohlar, soʻlim maskanlar va qadamjolarida turistik ekskursiya infratuzilmalarini yaratish, transport xizmati, dam olish, taomlar xilma-xilligi borasida aniq va tizimli ishlarni amalga oshirish lozimligini qayd etilishi oʻz navbatida, hududning turizm va ekoturizm salohiyati yanada oshishiga va natijada mahalliy aholining bandligi taʼminlanishi, turmush sharoiti yaxshilanishiga olib keladi.

Oʻrganishlar davomida olib borilgan tahlillarga koʻra tumanda turizm va ekoturizmni rivojlantirish borasida quyidagi takliflar asosida ishlarni amalga oshirish lozimligi koʻzda tutilmoqda.

Zomin Milliy bogʻiga kirish chiptalari bilan bogʻliq muammolarni oʻrganib chiqish, bogʻ xududidagi dam olish maskanlari va tuman qishloqlaridagi mehmonxona uylarini qayta xatlovdan oʻtkazib, ularga turistik sertifikat olish choralarini koʻrish, dam olish maskanlarida ishlayotgan xodimlarning servis sohasidagi bilim va koʻnikmalarini oshirish va sanitariya gigiena holatini jiddiy koʻrikdan oʻtkazish, milliy bogʻ va oʻrmon xoʻjaliklari hududida ekosoʻqmoqlarni talab darajasida jihozlash va rasmiylashtirish zarur.

Yana bir muhim eʼtiborni qaratish lozim boʻlgan jihat mahalliy aholining koʻpchilik qismi oʻz hududidagi tarixiy obidalar, ziyoratgohlar va shifobahsh maskanlar haqida maʼlumotlarga ega emasligidir. Shu maʼnoda tumanning turistik imkoniyatlari xaqida targʻibot ishlarini yanada kengaytirish, bu xaqida ommaviy axborot vositalarida turkum materiallar berib borish zarur. Xududdagi mavjud tarixiy obidalar, ziyoratgohlar va shifobahsh maskanlarda turli koʻngilochar tadbirlar, festivallar va aksiyalar tashkil etish orqali mahalliy aholi va xorijiy sayyohlarning tashrifini yanada kuchaytirish mumkin [6].

Hozirgi vaqtda Jizzax viloyatida turizm, ayniqsa, ekoturizmni rivojlantirishga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Oʻtgan yil davomida viloyatga 23 mingdan ortiq mahalliy va 4 mingdan ziyod xorijlik sayyohlar tashrif buyurgan. Joriy yilning birinchi yarmida xorijlik sayyohlar soni 3.5 mingdan oshdi. Ularning aksariyati tabiat ishqibozlari - ekoturistlardir. Ekoturizm boshqa sohalardan farqli oʻlaroq, katta xarajat talab etmaydigan, ammo yaxshi daromad keltiradigan biznes ekani maʼlum. Biznesning bu turini rivojlantirishda Turkiston togʻ tizmalari bagʻrida joylashgan Zomin, Baxmal, Forish, Gʻallaorol tumanlari, Aydar-Arnasoy koʻllar tizimi hududida keng imkoniyatlar mavjud.

Jizzax viloyatda 3 ta alohida qoʻriqlanadigan tabiiy maskanlar mavjud boʻlib, bular Zominva Nurota davlat qoʻriqxonalari, Zomin milliy bogʻidir. Hamda 9 ta oʻrmon xoʻjaligi boʻlimlari mavjud. Aydar-Arnasoy koʻllar tizimi yuqorida

ko'rsatib o'tilgan tabiiy maskanlar bilan viloyatda turizmning ekoturizm, agrar, sog'lomlashtirish, sport va ov turizmi kabi nihoyatda qiziqarli va noyob yo'nalishlarni rivojlantirishga asos bo'lib kelmoqda.

*Zomin sanatoriyasi*



*Aydarko'l o'tovlari*



*Toj mahal mehmonxonasi*



*O'zbekiston mehmonxonasi*



Hozirgi kunda viloyatda 17 ta mehmonxona, 2 ta motel, 7 ta uy mehmonxona, 2 ta kempinglar majmuasi va 2 ta o'tov lagerlari turistik muvofiqlik sertifikatida faoliyat yuritib kelmoqda.

Ushbu joylashtirish vositalari tomonidan 2017 yilda 5,5 mingdan ortiq (2016 yilda 4,5 ming) xorijiy hamda 30 mingdan ortiq mahalliy (2016 yilda 28 ming) sayyohlarga xizmat ko'rsatilgan.

2017 yil davomida 2 ta tur-operatorlik yo'nalishida (turistik xizmatlar ko'rsatuvchi) turistik firma ochilgan bo'lib, viloyatda jami tur-operatorlar soni 7 taga yetdi (Jizzax shahrida 2 ta, Zomin tumanida 3 ta, Forish va G'allaorol tumanlarida 1 ta dan).

Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 17 maydagi 4-son bayonnomasiga muvofiq "2017-2019 yillarda Jizzax viloyatining turizm salohiyatini jadal rivojlantirish" Dasturi tasdiqlangan.

Mazkur dastur doirasida 48 tasi turistik joylashtirish vositalari (mehmonxona, motel, kemping, o'tov va uy mehmonxonalari)ni qurib ishga tushirish ko'zda

tutilgan. O'tgan 2017 yil davomida 65,3 mlrd.so'm sarf qilingan holda mazkur loyihalarning 22 tasi qurib bitkazilgan va ishga tushirilgan. Hozirda ularda turistik muvofiqlik sertifikatini olish uchun hujjatlarni rasmiylashtirish ishlari yakunlanmoqda. Ishga tushirilgan turistik vositalari asosida sayyohlarning dam olishlari uchun 552 ta joy hamda 220 dan ortiq yangi ish o'rinlari yaratildi [6].

Prezidentimizning 2016-yil 2-dekabrda “O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida” gi farmoni bu boradagi ishlar samaradorligini yanada oshirishda muhim dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda [1].

Tadqiqotlarning so'ngi ma'lumotlariga ko'ra, ko'pgina turizmning turli tarmoqlari o'sishi yiliga o'rtacha 5% ga ortib borayotgan bo'lsa, ekoturizmning korsatkichi esa 20-30% dan oshmoqda. Ko'pgina mutaxassis va tadqiqotchilarning ilmiy tajriba va xulosalari shuni ko'rsatmoqdaki, ekoturizm turizmning yangi yosh yonalishi bo'lishiga qaramasdan, ommalashuvi boshqa turistik yo'nalishlarga nisbatan 2-3 barobar jadal kechmoqda. Shuning uchun ham viloyatda ekoturizmni rivojlantirishga qaratilgan ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda.

Ekosayyohlar oqimining ko'payishi qishloq hududlari aholisi farovonligini oshirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan shu jihat hisobga olinib, viloyatda 2017-2021 yillarda turizmni rivojlantirish dasturida zamonaviy ekoturizm infratuzilmasini yaratishga alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu dastur asosida joriy yilning birinchi yarmida viloyatda 2 ta yangi mehmonxona, 2 ta dam olish va davolanish sanatoriyasi, 10 dan ortiq uy-mehmonxonalar ishga tushirildi. Yangi turistik yo'nalishlar ochilmoqda [7].

Hozirgi vaqtda yurtimizda mahalliy va xorijiy turistlar oqimining tobora ortib borishiga sabab bo'layotgan “Toshkent-Zomin-Toshkent” va “Toshkent-Aydarko'l-Toshkent” marshrutlari Jizzax viloyati hududida joylashganligi viloyatning turizm aniqrog'i ekoturizmdagi salohiyati istiqbolli ekanligidan dalolat beradi. Boy nabotot va hayvonot dunyosi, xushmanzara archazor tog'lari bilan mashhur Zomin tumaniga xorijlik sayyohlarning qiziqishi katta. Turkiston tog' tizmalari bag'ridagi noyob ekotizimga ega bo'lgan “Zomin” xalq parki, “Zomin” qo'riqxonasi, Zomin davlat o'rmon xo'jaligi hududida yovvoyi o'simliklarning 700 dan ziyod turi, kam uchraydigan va noyob yovvoyi hayvonlarning 150 turi mavjud. O'rikli soy sharsharasi, 1000 yoshli Boboyong'oq kabi tabiat yodgorliklari nafaqat mahalliy, balki xorijlik sayyohlarda ham katta qiziqish uyg'otmoqda.

Qadimiy tarixiy manbalarda tilga olingan Zominda xalqimizning uzoq o'tmishi bilan bog'liq ko'plab yodgorliklar saqlanib qolgan. Tumanda sayyohlarga qulaylik yaratish maqsadida yangi inshootlar, xizmat ko'rsatish tarmoqlari barpo etish,



ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Joriy yilda Zomin dam olish zonasida 370 va 160 o'rinli 2 ta yangi sanatoriya qurilib, ishga tushirildi. Hududdagi O'rikli soy, Hulkar, Usmonli soy, Peshag'or qishloqlarida sayyohlar uchun uy-mehmonxonalar faoliyat yuritmoqda. Yaqinda tumanda yana ikkita shunday uy-mehmonxona faoliyat boshladi.

Forish tumanining musaffo tog' suvi, yam-yashil bog'lari, ekologik toza mevalari sayyohlarni o'ziga rom etmoqda. Uyda tayyorlanayotgan tandir non, qatiq, ayron, qimiz, saryog' kabi hududga xos milliy mahsulotlar xorijliklarga manzur bo'layotir. Tumanda o'ndan ziyod uy-mehmonxonalari sayyohlar xizmatida b'lib, joriy yilda yana ikkita shunday mehmonxona ishga tushirildi. Tegishli sertifikatga ega bo'lgan turoperatorlik firmalarida xorijlik va mahalliy mehmonlar talabiga javob beradigan barcha shart-sharoit yaratilgan. Yuqori Uxum qishlog'ida “Guest house” uy-mehmonxonasi yaqin yillardan boshlab mahalliy va xorijiy sayyohlarga xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'ygan bo'lsa, Asraf va Ko'hna Forish qishloqlarida ham barcha qulayliklarga ega bo'lgan 9 ta shunday uy-mehmonxonalari faoliyat yuritmoqda. Ularda hudud tabiati bilan tanishish maqsadida kelgan mahalliy va xorijiy sayyohlarga xizmat ko'rsatish uchun barcha qulayliklar mavjud bo'lib, bu uy-mehmonxonalari sayyohlar bilan gavjum.

Qizilqum cho'li va Nurota tog' tizmalari oralig'ida joylashgan Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi yurtimiz hayvonat va nabodot olamining noyob turlarini saqlab kelayotgan tabiiy hududlardan biri sifatida ekoturizm manzillari ro'yxatida alohida o'rin tutadi. Ko'l sohilida, Forish tumani Qizilqum qishlog'ida qurib bitkazilgan 20 o'rinli kempingda sayyohlarga xizmat ko'rsatish yo'lga qo'yilgani hududda ekoturizmni rivojlantirishdagi muhim ishlardan biri bo'ldi. Kempinglar yonida yana shuncha sayyoh dam olishiga mo'ljallangan o'tov-mehmonxonalar ishlab turibdi. Ushbu sayyohlik maskanlarida dam olib, Qizilqumning o'ziga xos tabiati bilan tanishish, ov bilan shug'ullanish uchun barcha sharoit yaratilgan.

“Oxus traver” ma'suliyati cheklangan jamiyati tomonidan barpo etilgan 1250 gektarlik, “Egizbuloq” qishloq fuqarolar yig'ini hududidagi “Jizzax tog'konkimyo” ma'suliyati cheklangan jamiyatiga qarashli 573 gektarlik dam olish maskanlarida ham sayyohlar va ov ishqibozlari uchun barcha qulaylik yaratilgan. Bu ishlarni hududda ekoturizmni rivojlantirish borasidagi dastlabki qadamlar, deyish mumkin. Tadbirkorlar mamlakatimizning yetakchi turoperatorlari, davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda mazkur sohani rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli loyihalar ustida ish olib bormoqda. Loyihalarda turistik manzillarni kengaytirish, sayyohlarga xizmat ko'rsatishni tashkil etishdan tortib atrof-muhitni muhofaza

qilishgacha qamrab olinayotir. Loyihalar doirasida seminar o'tkazilib, gidlar, uy-mehmonxonalar sohiblarining o'qishlari tashkil etilmoqda [7].

**Xulosa.** Jizzax viloyatida ekoturizmni rivojlantirish uchun Zomin, Baxmal, Forish, Arnasoy, G'allaorol kabi qulay maskanlar bo'lib, bu yerlarda ekoturizmni tashkil etish mumkin. Bu joylarda o'ziga xos turistik infratuzilmani yaratish nafaqat mahalliy, balki chet ellik sayyohlarni ham qiziqtirishi shubxasizdir. Bizningcha, mintaqa turizmini rivojlantirish uchun avvalo:

- Ekoturizmni rivojlantirish uchun geoekologik tadqiqotlarni turizm nuqtai nazardan olib borish;
- kadrlar malakasini ekoturistik nuqtai nazardan xorijiy davlatlarda oshirish;
- xorijiy davlatlarda faoliyat ko'rsatadigan kichik sayyohlik firmalar ish faoliyatini o'rganish va h.k

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, Jizzax viloyati va uning mintaqalarida ekoturizmni hududiy tashkil etish va rivojlantirish kelajakda turizm sohasini yuksaltirishda katta ahamiyatga egadir. Viloyatda kelgusida ekoturizmni rivojlantirish uchun ko'plab ekoturistik loyihalarni hududlarda jalb etish maqsadga muvofiqdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining “Turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni, 2017.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda-T., O'zbekiston, 1997.
3. Xoshimov M. O'zbekistonning ekologik turizmi. - Samarqand, 2012
4. Александрова А.Ю. Международный туризм: Учебник- М.: Аспект Пресс, 2002.
5. Soliev A., Usmonov M. “Turizm geografiyasi”. – Samarqand, 2005 y.
6. Jizzax viloyati statistika ma'lumotlari 24 may. 2018 y.
7. Internet saytlari; [www.jizzax.uz](http://www.jizzax.uz), [www.zivonet.uz](http://www.zivonet.uz), <http://www.eco-tourism.uz/>